

⇒ *Ayrimlar plastik qadoqdagi suv iste'mol uchun qulay va xavfsiz ekanligini ta'kidlaydi. Boshqalar esa vodoprovod suvini ma'qul ko'rishadi.*

<i>1. Nega ayrimlar plastik qadoqdagi suv iste'mol uchun qulay va xavfsiz ekanligini ta'kidlaydi?</i>	<i>2. Nega boshqalar vodoprovod suvini ma'qul ko'rishadi?</i>
✓ Gigiyenik xavfsizlik va sifat kafolati	✓ Iqtisodiy jihatdan tejamkorlik
✓ Foydalanish va olib yurishda qulay	✓ Atrof – muhitga nisbatan ekologik barqarorlik – shaxsiy fikrimga
✓ Sog'liqni saqlash va tibbiyot jihatdan tavsiya etilgan.	✓ Qulay va doimiy foydalanish uchun mavjud
	✓ Filtrlash imkoniyati

SINONIM:

plastik qadoqdagi suv – mineral suv, qadoqlangan suv, tayyor ichimlik suvi, sanoatbop ichimlik suvi, sotuvdagi suvlar....

vodoprovod suvi – oqova suvlari, ichimlik quvuri suvlari, markaziy ta'minot suvi.....

LEKSIK BIRLIK:

Yer – xazina, suv – gavhar.

Suv – obihayot.

Suv – tiriklik manbai.

Oldingda oqqan suvning qadri yo'q.

Suv – zar, suvchi – zargar.

Suv keldi – nur keldi.

Nima eksang , shuni o'rasan.

⇒ **Ayrimlar plastik qadoqdagi suv iste'mol uchun qulay va xavfsiz ekanligini ta'kidlaydi. Boshqalar esa vodoprovod suvini ma'qul ko'rishadi.**

Suv yer yuzidagi har bir tirik mavjudot uchun eng muhim hayot manbai sanaladi. "Yer – xazina, suv – gavhar", deb bejiz aytmagan dono xalqimiz. Suv iste'moli bo'yicha bugun jamiyatimizda turli qarashlar shakllangan bo'lib, bunda: ba'zilar plastik idishlardagi qayta ishlangan suvlarni afzal bilishsa, ayrimlar vodoprovod suvini hartomonlama qulay hisoblashadi. Xo'sh, bu ikki yondashuvdan qay biri o'zini oqlay oladi?

Inson tanasining 80 foizi suvdan iborat bo'lib, organizmidagi har bir hujayradan tortib, eng mayda to'qimalargacha usiz o'z biologik vazifasini bajara olmaydi. Shunday ekan, uning iste'moli va kunlik me'yoriga amal qilish har birimizning vazifamizdir. Qadoqlangan suv tarafdorlari, **avvalo**, uning xavfsizligi va gigiyenik jihatdan tozaligini o'z tanlovlariga asos sifatida ko'rsatadilar. **Shuningdek**, sotuvdagi ichimlik suvi foydalanish hamda olib yurish uchun juda qulay bo'lib, ko'cha-ko'ya yoki uzoq manzillarga sayohat qilganimizda manfaatli bo'lishi mumkin. **Qolaversa**, salomatlik posbonlari homilador ayollar, bolalar va turli immun kasalliklariga chalinganlar uchun qadoqlangan va maxsus filtrdan o'tgan suvlarni tavsiya etishadi. **Xususan**, O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi maktab o'quvchilari hamda ularning ota-onalari o'rtasida o'tkazgan erkin so'rovnomalarga ko'ra, plastik qadoqdagi suvlarga bo'lgan talab so'nggi besh yillikda 60,75 foizga ortganligi aniqlangan.

"Bahs – haqiqatga eltuvchi yagona yo'l", - degan edi ulug' faylasuf Suqrot. Shu bois ushbu munozarali vaziyatda, albatta, oqova suvlarning afzalliklarini ta'kidlovchilar argumentlarini inkor eta olmaymiz. **Birinchidan**, vodoprovod suvlari qadoqlangan ichimliklarga nisbatan ancha hamyonbop bo'lib, tejamkorlik uchun yo'l ochadi. **Ikkinchidan**, markaziy ta'minot suvlari istalgan vaqtda va chegaralanmagan miqdorda foydalanish uchun mavjud bo'lib, tashib yurish yoki do'konga borish kabi ovoragarchiliklarni talab etaydi. **Uchinchidan**, zamonaviy suv tarmoqlari va filtrlash texnologiyalari orqali vodoprovod suvini ham xavfsiz holatga keltirish mumkin. **Jumladan**, 2024-yilda Germaniyada olib borilgan ekologik tadqiqotda oddiy qayta ishlangan ichimlik quvuri suvlari ba'zi mashhur brend ostidagi "Nestle", "Hidrolife" kabi tayyor mahsulotlardan ham musaffolik va minerallarga boylik jihatdan ustunligi aniqlangan.

Nazarimda, qadoqlangan suvlarning qulaylik va inson salomatligi nuqtayi nazaridan foydasini inkor eta olmasak-da, ularning ekologiya hamda atrof-muhitga salbiy ta'siri bor ekanligini ham rad eta olmaymiz. Muntazam ravishda ishlab chiqarilayotgan milliardlab plastik idishlar chiqindiga aylanib, ularning aksariyati qayta ishlanmaydi. Bu esa ona tabiatimiz ekotizimi uchun jiddiy zarbadir. Misol uchun, BMT ekologik dasturi hisobotlarida aytilishicha, global miqyosda har yili 11 million tonnaga yaqin plastik chiqindi aynan suv mahsulotlaridan kelib chiqadi.

Fikrimni xulosalar ekanman, insoniyatning kelajagi uning atrof-muhitga munosabatida aks etishini ta'kidlab o'tmoqchiman. Shu bois, suv iste'moli tanlovda nafaqat salomatligimiz, balki ekologik barqarorlikni ham inobatga olgan holda qaror

chiqarsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero “ Nimani eksang, shuni o'rasan” deganlaridek, bugun siz-u bizga hayot va zavq ulashayotgan ichimlik suvi va boshqa tabiiy boyliklarimizdan naslimiz davomchilari ham bizdek bahra olishga haqli.